

## Davlat Mulkini Xususiyashtirish Tendensiyasi

*M. U. Turdiyeva<sup>1</sup>  
Talaba Boymuratov Feruz<sup>2</sup>*

**Annatatsiya:** Ushbu maqolada O'zbekiston Respublikasida davlat mulkini, xususan davlat ulushi yuqori bo'lган korxona va idoralarni xususiyashtirish masalalari bo'yicha so'z boradi. Bunda sohadagi ozgarishlar, muammolar va hozirgi kundagi tendensiyalar tadqiq etiladi.

**Kalit so'zlar:** Davlat tasarrufidan chiqarish, Xususiyashtirish, Davlat ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha savdolar (kim oshdi savdolari), Xaridor, Investitsiya majburiyati, Ijtimoiy majburiyatlar, Auksion, Balansda saqllovchi, Boshlang'ich narx, Transformatsiya, Davlat aktivlarini boshqarish, Xususiyashtirish jamg'armasi.

O'zbekiston Respublikasida Sovet Ittifoqining parchalanishidan so'ng ko'plab korxonalar davlat budgeti zimmasida qolib ketdi. Negaki endigina mustaqillikka erishgan davlatimiz iqtisodiyotini himoya qilish maqsadida davlat barcha korxonalarni ham xususiyashtira olmas edi. Lekin, yillar mobaynida ushbu korxonalar xususiyashtirilishiga ehtiyoj kuchayib bormoqda. Quyida buning sabablari va bu borada umumiy holat tahlili keltirilgan.

Davlat tasarrufidan chiqarish – davlat korxonalarini va tashkilotlarini xo'jalik shirkatlari va jamiyatlariga, ommaviy mulk bo'lmaydigan boshqa korxonalar va tashkilotlarga aylantirishdir.

Xususiyashtirish – jismoniy shaxslarning va davlatga taalluqli bo'lмаган yuridik shaxslarning ommaviy mulk obyektlarini yoki davlat aksiyador jamiyatlarining aksiyalarini davlatdan sotib olishidir.

Davlat ko'chmas mulk obyektlari bo'yicha savdolar (kim oshdi savdolari) – sotuvchi yoki ko'chmas mulk tashkiloti, shuningdek, kim oshdi savdolari va kim oshdi savdolarini tashkil etish va o'tkazish bo'yicha xizmatlarni ko'rsatuvchi ixtisoslashgan tashkilot, shu jumladan, elektron shaklda, O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi tomonidan belgilangan tartibda davlat ko'chmas mulk obyektlarini sotishni tashkillashtirish.

Xaridor – qonun xujjaligiga muvofiq, davlat mulki bo'lган ko'chmas mulk obyekti (bundan buyon matnda oldi-sotdi shartnomasi deb yuritiladi) uchun sotuvchi bilan oldi-sotdi shartnomasini tuzgan nodavlat yuridik yoki jismoniy shaxs (O'zbekiston Respublikasi rezidenti yoki nerezidenti).

Investitsiya majburiyati – investor tomonidan investitsiya loyihasida nazarda tutilgan muayyan maqsadlarga erishish uchun olgan majburiyati.

Ijtimoiy majburiyatlar – pul qiymatiga ega bo'lмаган va qonunga zid bo'lмаган shakllarda amalga oshiriladigan davlat mulkini sotishda xaridor tomonidan qabul qilingan majburiyatlar.

Auksion – tanlov asosida xaridor bilan savdoning shakli, bunda unga eng yuqori narxni taklif etgan ishtirokchi davlat mulkini sotish shartnomasini tuzish huquqini oladi. Auksionlar ochiq yoki yopiq bo'lishi mumkin.

Balansda saqllovchi – balansida davlat ko'chmas mulki bo'lган yuridik shaxs.

Boshlang'ich narx – kim oshdi savdosiga ochiq mulkni berish uchun sotuvchi tomonidan belgilangan narx.

<sup>1</sup>Ph.D, BuxDU katta o'qituvchisi

<sup>2</sup>Talaba



Aslida davlat mulkini xususiylashtirish haqida so'z yuritishdan oldin bu jarayonning o'zi nega kerakligi, foydasi, ahamiyati va nima uchun muhimligi haqidagi savolga javob berish kerak. Davlat mulkini xususiylashtirish bir qancha sababdan iqtisodiy jihatdan davlat va jamiyat uchun foydali hisoblanadi. Jahan tajribasidan ma'lumki, xususiylashtirilgan korxonalar davlat ulushida bo'lgan korxonalarga nisbatan samarador va rivojlanishga ko'proq moyil bo'ladi va aksincha, davlatga qaram bo'lgan tashkilot va korxonalar esa boqimandalik kayfiyatida qolib ketadi.

O'zbekistonda davlat korxonalarini va davlat mulkini xususiylashtirish bo'yicha tizimli islohotlar davlat mustaqilligi e'lon qilingan yildanoq boshlangan. Lekin amaliyotda ularning turlari, afzallikkari, samaradorligi cheklangan edi. Xususan, 1991-yilda qabul qilingan "Davlat tasarrufidan chiqarish va xususiylashtirish to'g'risida"gi Qonun bu borada tamal toshini qo'ygan desak to'g'ri bo'ladi. Ushbu Qonun chet elda keng qo'llaniladigan xususiylashtirish usullarini (amalda 2 ta usul: auksion, tanlov), ochiqlik va shaffoflik talablarini hamda davlat organlarining xususiylashtirish sohasidagi aniq vakolatlarini nazarda tutmagan. Ma'lumot uchun: Xalqaro tajribada xususiylashtirishning 4 tadan 10 tagacha uslubi qo'llaniladi, jumladan, Germaniyada (6 ta), Chexiyada (7 ta) va Polshada (10 ta).



Qonunni ishlab chiqishda ishtirok etgan tashkilotlar:  
Jahon Banki



Yevropa tiklanish va taraqqiyot banki



Osiyo taraqqiyot banki




Indecon Consulting kompaniyasi



KPMG kompaniyasi



54 ta vazirlik va idoralar



Polshalik ekspertlar<sup>2</sup>

Qonunda quyidagi asosiy normalar nazarda tutilgan:

1. Davlat aktivlarini boshqarish agentligi (keyingi o'rnlarda – Davaktiv agentligi) davlat mulkini xususiylashtirish sohasidagi vakolatlari davlat organi hisoblanadi.

<sup>2</sup> Muallif tomonidan tuzilgan.

Davlat mulkini xususiyashtirish dasturlari Davaktiv agentligi tomonidan davlat organlarining, mahalliy davlat hokimiyati organlarining, shuningdek jismoniy va nodavlat yuridik shaxslarning takliflari asosida ishlab chiqiladi.

Xususiyashtirish dasturlari Davaktiv agentligi tomonidan ishlab chiqilib, quyidagilar tomonidan tasdiqlanishi belgilanmoqda:


- respublika mulki obyektlari bo'yicha O'zbekiston Respublikasi Prezidenti (yirik davlat korxonalari) va Vazirlar Mahkamasi (qolgan respublika mulklari);
- munitsipal mulk bo'yicha:
  - davlat unitar korxonalari, davlat muassasalari va xo'jalik jamiyatlarining ustav fondidagi (ustav kapitalidagi) davlat ulushlarini xususiyashtirish dasturlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari;
  - ko'chmas mulk obyektlari – Qoraqalpog'iston Respublikasi Jo'qorg'i Kengesi, xalq deputatlari viloyatlar va Toshkent shahar Kengashlari bilan kelishilgan holda Qoraqalpog'iston Respublikasi Vazirlar Kengashi raisi, viloyatlar va Toshkent shahar hokimlari.

2. Xususiyashtirishning elektron-onlayn auksion, tanlov, birja, muzokaralarga ommaviy ravishda taklif qilish, raqobatga asoslangan muloqot, ko'chmas mulk, ulush hamda korxonani boshqa jamiyatning ustav fondiga kiritish hamda korxonalarini keyinchalik sotish sharti bilan ijara berish kabi 8 ta usullar nazarda tutilmoqda.

O'zbekiston Respublikasi davlat aktivlarini boshqarish agentligining ma'lumotiga ko'ra, 2022- yilning yanvar-mart oylarida 107 ta (dastur doirasidagi va dasturdan tashqari obyektlarni qo'shgan holda) korxona va obyektlar (keying o'rnlarda – obyektlar) xususiyashtirildi.

Hisobot davrida eng ko'p xususiyashtirilgan obyektlar soni Andijon viloyatida –

17 ta (15,9 %), Farg'ona viloyatida – 14 ta (13,1 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida – 13 ta (12,1 %), Xorazm viloyatida – 13 ta (12,1 %)ni tashkil etdi.




Davlat aktivlarini boshqarish, transformatsiya va xususiy lashtirish jamg'armasiga mablag'lar tushumi.



2022-yilning yanvar-martida vazirlik va idoralar kesimida xususiy lashtirilgan davlat obyektlarining

■ Agentlik MA ■ Toshkent shahri ■ Boshqalar



tarkibi (jamiga nisbatan %da)

→ Hududlar kesimida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Agentlik MAga (barcha tushumlarning 60,6 % i), Toshkent shahri (13,3 %), Qoraqalpog'iston Respublikasida (6,7 %), Xorazm



(3,0 %), Samarqand (2,4 %), Farg'ona (2,4 %) va Qashqadaryo (2,0 %) viloyatlari hissasiga to'g'ri keldi

► Davlat noturar joy fondidan samarali foydalanish maqsadida, 2022- yilning yanvar martida obyektlarni ijara berish bo'yicha 5831 ta ijara shartnomalari tuzildi.

► Natijada 1,1 mingdan ortiq yangi ish o'rirlari yaratildi.

### Xususiyashtirishning asosiy ko'rsatkichlari (2022-yil yanvar-mart holatiga ko'ra)

	<i>Xususiyashtirilgan korxona va obyektlar soni</i>		<i>Davlat aktivlarini sotishdan olingan tushumlar</i>	
	<i>birlik</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>	<i>mlrd. so'm</i>	<i>Jamiga nisbatan foizda</i>
<b>O'zbekiston Respublikasi</b>	<b>107</b>	<b>100,0</b>	<b>269,8</b>	<b>100,0</b>
Qoraqalpog'iston Respublikasi	13	12,1	18,1	6,7
<i>viloyatlar:</i>				
Andijon	17	15,9	5,3	2,0
Buxoro	1	0,9	3,8	1,4
Jizzax	9	8,4	0,4	0,1
Qashqadaryo	5	4,7	5,5	2,0
Navoiy	3	2,8	2,8	1,0
Namangan	5	4,7	2,6	1,0
Samarqand	5	4,7	6,6	2,4
Surxondaryo	7	6,5	4,9	1,8
Sirdaryo	2	1,9	1,1	0,4
Toshkent	6	5,6	4,6	1,7
Farg'ona	14	13,1	6,6	2,5
Xorazm	13	12,1	8,0	3,0
Toshkent sh.	5	4,7	36,0	13,3
Agentlik markaziy apparati	2	1,9	163,5	60,6

► Davlat mulkini ijara berishdan tushgan tushumlar jami 26,8 mlrd.so'mni tashkil etdi.

► Hududlar kesimida davlat mulkini ijara berishdan tushgan tushumlarning asosiy qismi Toshkent shahriga (barcha tushumlarning 40,4 % i), Toshkent (15,1 %), Andijon (5,8 %), Xorazm (5,3 %) va Buxoro (4,7 %) viloyatlariga to'g'ri keldi.

Xususiyashtirilgan davlat mulki obyektlari tarkibida eng ko'p ulush Davlat aktivlarini boshqarish agentligiga – 69 ta obyekt (respublika bo'yicha jami xususiyashtirilgan obyektlarning 64,5 % i), mahalliy hokimiyatlarga – 8 ta obyekt (7,5 %), Suv xo'jaligi vazirligiga – 3 ta obyekt (2,8 %) to'g'ri keldi. 2022- yilning yanvar-martida davlat mulkini sotishdan tushgan tushumlar 269,8 mlrd. so'mni tashkil qildi.

Qisqacha qilib aytganda, davlat tasarrufida bo'lган korxona va tashkilotlarning iqtisodiy va moliyaviy ahvoli ilk mustaqillik yillari uchun qoniqarli bo'lган. Negaki, endigina erkin iqtisodiyotga ega bo'la boshlagan mamlakat uchun iqtisodiyotni davlat tomonidan tartibga solish mexanizmi ko'proq talab etilgan. Bunda davlat ko'pgina korxonalarini o'zi tasis etib, tasarrufida ular mustaqil faoliyat yurita oladigan davrga kelguncha vaqtinchalik bo'lsa ham ushlab turgan. Keyinchalik bu amaliyotga ertami kechmi nuqta qo'yish zaruriyati baribir yuzaga keladi va shu boisdan ilk "Davlat mulkini



xususiyashtirish to'g'risida"gi qonun va normalar ishlab chiqila boshlanadi. Eng kamida davlat xususiy sherikchilik asosida tashkil etiladi. Ammo bu o'zgarishlar yetarli emas. Chunki agar davlat aktivlari faqatgina bir necha katta sarmoyador shaxslar qo'lida qolib ketsa, foydadan ko'ra ko'proq zarari yetishi mumkin bo'lgan xususiyashtirish amaliyotiga aylanib qoladi. Misol uchun, raqobatning yo'qolib borishi, davlat yoki hukumatning zaiflashishi, yashirin va korruption iqtisodiyotning yuzaga kelishi bilan xarakterlanadi. Bunga sabab esa aynan biz yuqorida ta'kidlab o'tgan xususiyashtirishda yondashuvlarning cheklanganligi va boshqa muammolardir. Bu borada islohotlar amalga oshirilib, xususan 14-fevral kuni "Davlat mulkini xususiyashtirish to'g'risida"gi [O'RQ-907-sonli] qonun prezident tomonidan imzolangani ayni muddao bo'ldi desak, adashmagan bo'lamiz. Amaliyotda 2 tagina yondashuv bor edi va bu endilikda jahon talablariga mos 8 ta usullarga ko'paydi:

- Auksion
- Tanlov savdolari
- Muzokaralarga ommaviy ravishda taklif qilish
- Raqobatga asoslangan muloqot
- Birja savdolari
- davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini mulkiy majmua tarzida xo'jalik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) davlat ulushi sifatida kiritish
- davlat ulushlarini va davlat ko'chmas mulk obyektlarini xo'jalik jamiyatining ustav fondiga (ustav kapitaliga) davlat ulushi sifatida kiritish
- davlat unitar korxonasini yoki davlat muassasasini keyinchalik xususiyashtirish sharti bilan ijara berish.

Bu bilan (mening nazarimda sal kechikish bilan) anchagina kelib chiqishi mumkin bo'lgan iqtisodiy muammolarning oldi olindi desam adashmagan bo'lamon.

Xulosa o'rnila bu va bunga o'xshash dunyoning rivojlangan davlatlari tajribasidan, ularning xatolariyu yutuqlaridan o'rgangan holda iqtisodiyotni har tomonlama modernizatsiya qilish, innavatsion yechimlarni kiritish kechiktirib bo'lmas va ayni damda eng to'g'ri yo'l ekanligiga hech shubha yo'q.

### Foydalilanilgan adabiyotlar ro'yhati.

1. Turdiyeva, M. U. (2021, October). Importance of Innovations in the Development of Bukhara Industry. In "ONLINE-CONFERENCES" PLATFORM (pp. 264-267).
2. Mukaddas, T. (2021). MECHANISM FOR STIMULATING AND EFFECTIVE USE OF THE INNOVATIVE POTENTIAL OF UZBEKISTAN. Бюллетень науки и практики, 7(12), 230-239.
3. Qayimova, Z. (2023). Развитие цифровой экономики Узбекистана. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 32(32).
4. Игамова, Ш. З. (2021). Особенности инноватики на предприятиях промышленности строительных материалов. Архитектура. Курилиш. Дизайн Илмий-амалий журнал. ТАКИ, 263-267
5. Abdullayeva, H. (2023). BOZOR IQTISODIYOTI SHAROITIDA TADBIRKORLIKNI REJALASHTIRISHNING NAZARIY-USLUBIY ASOSLARI. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 37(37).
6. Абдуллоев, А. Ж., Таирова, М. М., & Усманова, А. Б. (2020). Малый бизнес в сельском туризме и агротуризме. Достижения науки и образования, (5 (59)), 29-30.
7. Turdiyeva, M. (2021). Sanoat korxonalarida innavatsiyalarning tutgan o'rni va roli (Buxoro hududi misolida). ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).
8. Giyazova, N. (2023). The share of world countries in the textile industry and the importance of marketing in its development. Центр Научных Публикаций (Buxdu. Uz), 27(27).

